

VARIABLE INFLUENCE OF CULTIVATION RATE ON WINTER WHEAT VARIETIES

Nasiba Abdusarovna Yuldasheva
Teacher of the Department of Biology
Chirchik State Pedagogical University
n.yuldasheva@cspi.uz

ANNOTATION

In this article, in order to increase grain production in our Republic, the impact of sowing rate on the variability of winter wheat varieties in the conditions of Syrdarya region by growing winter wheat varieties was studied. In the conditions of Syrdarya region, information is provided about the importance and advantages of sowing rates for winter wheat varieties.

Keywords: Cereal production, wheat, planting rate, selection, degree of variation, early, late ripening varieties.

**EKISH ME'YORINING KUZGI BUG'DOY NAVLARIGA BELGILARINING
O'ZGARUVCHAN TA'SIRI**

Nasiba Abdusarovna Yuldasheva
Biologiya kafedrası o'qituvchisi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
n.yuldasheva@cspi.uz

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, Respublikamizda don etishtirishni ko'paytirish uchun hosildorlikni oshirish imkoniyatlarini izlab topib, **kuzgi bug'doy navlarini yetishtirish orqali** Sirdaryo viloyati sharoitida kuzgi bug'doy navlari belgilarining o'zgaruvchanlik darajasiga ekish me'yoring ta'sirini o'rganildi. Sirdaryo viloyati sharoitida kuzgi bug'doy navlariga ekish me'yorini ahamiyati va avzalliklari haqida malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: G'allachilik, bug'doy, ekish me'yori, seleksiya, o'zgaruvchanlik darajasi, ertapishar, kechpishar navlar .

KIRISH

G'allachilik qishloq xo'jaligining asosiy sohalaridan hisoblanadi. G'allachilikning asosiy maqsadi mamlakatimiz aholisini don va don mahsulotlariga bo'lgan talabni to'liq qondirishdir. Buning uchun har mintaqaning tuproq iqlim sharoitiga mos bo'lgan navlarni tanlash va ularni parvarishlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish talab etiladi. Keyingi yillarda g'allachilik sohasida katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha 2003 yilda Respublikamiz bo'yicha o'rtacha hosildorlik gektariga 44 sentnerni, jami yig'ilgan don miqdori esa, 5.1 mln tonnani tashkil etdi. Natijada 2002 yildan boshlab Respublikada to'liq don mustaqilligiga erishildi va chetdan don sotib olish to'xtatildi. [3].

G'allachilik sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar ushbu soha mutaxassisleri, olimlar va dehqonlarning samarali mehnatlari natijasidir. Shunga qaramay, g'allachilik sohasini yanada

rivojlantirish hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki g'alla ekinlarining potensial imkoniyatlari yuqori bo'lib, gektariga 70-80 sentnerdan hosil olish mumkin. Buning uchun seleksiya imkoniyatlaridan foydalanilgan holda sho'rga chidamli navlarni tanlash va ularni ishlab chiqarishga joriy etish talab etiladi. Sekeksiya ishlarini samarali olib borish birinchi navbatda navlarning belgi va xususiyatlarini to'liq o'rganish zarur. Chunki organizm belgilarining kuchli o'zgaruvchan bo'lishi tanlov ishlarining samarali yakunlanishida o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, hosildorlik va hosil elementlarining kuchli o'zgaruvchanligi, tashqi omillar ta'siriga beriluvchanligi bunga misol bo'la oladi. Belgilarning o'zgaruvchanlik darajasiga nafaqat tashqi omillar, navlarning biologik xususiyatlari ham kuchli ta'sir etishi mumkin. Shu sababdan har mintaqaning tuproq iqlim sharoitida seleksiya ishlarini olib borish uchun organizm belgi va xususiyatlarini to'liq o'rganish, jumladan ularning o'zaro bog'liqlik, o'zgaruvchanlik darajalarini aniqlash maqsadga muvofiqdir.[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Respublikamizda don etishtirishni ko'paytirish uchun hosildorlikni oshirish imkoniyatlarini izlab topish kerak bo'ladi. Ma'lumki hosildorlikni oshirishning 2 ta asosiy yo'nalishlari mavjud:birinchidan, don etishtirishning ilmiy asoslangan agrotexnikasini ishlab chiqish, ikkinchidan esa, har mintaqaning tuproq iqlim sharoitiga mos navlarini tanlagash zarur.[1].

Ma'lumki, Respublikamiz viloyatlari bir-biridan tuproq iqlim sharoiti bilan farq qiladi. Respublikamizda 50%, viloyatimizda esa 90% yerning sho'rlanganligi qishloq xo'jaligida o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababdan Sirdaryo viloyati sharoitida kuzgi bug'doy navlaridan past hosil olinmoqda. Shuning uchun sho'rlanishga moyil bo'lgan tuproq sharoitida yuqori hosil olish imkoniyatlarini izlab topish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Buning uchun seleksiya imkoniyatlaridan foydalangan holda sho'rga chidamli navlarni tanlash va ularni ishlab chiqarishga joriy etish talab etiladi. [2].

Ma'lumki, mamlakatimiz jumladan, Sirdaryo viloyati sharoitida kuzgi bug'doy navlarinig ekish me'yori bo'yicha har xil qarashlar mavjud. Ko'pchilik tadqiqotchilar Sirdaryo viloyati sharoitida ekish me'yorini gektariga 3-4 mln, ayrimlari esa 5-6 mln ga tavsiya etilmoqda.[3].

ILMIY YANGILIKLAR VA NATIJALAR:

Sirdaryo viloyati sharoitida kuzgi bug'doy navlari belgilarining o'zgaruvchanlik darajasiga ekish me'yorining ta'sirini o'rganildi. Buning uchun miqdoriy genetikaning zamonaviy statistik usullaridan, kompyuter imkoniyatlaridan foydalanildi. Sirdaryo viloyati sharoitida kuzgi bug'doy optimal ekish me'yori gektariga 4-5 mln ekanligi aniqlandi. Olingan natijalar Sirdaryo viloyati shariotida kuzgi bug'doy navlari seleksiyasi uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Olingan natijalarning muhimi shundaki, Sirdaryo viloyati sharoitida oktyabr oyining birinchi o'n kunligida ekilishi kerak bo'lgan bug'doy navlari uchun ekish me'yori gektariga 4-5 mln ni tashkil etish kerak. Bunday holatda kuzgi bug'doy navaridan yuqori va sifatli hosil olish mumkin. O'rganilgan belgilardan boshqoq uzunligi nisbatan kam o'zgaruvchan va yuqori determinatsiyalangan belgilardan deb topildi. Bu esa o'z navbatida Sirdaryo viloyati sharoitida seleksiya ishlarini olib borishda ushbu ko'rsatkich asosiy kriteriyalardan deb hisoblash mumkin.

Tajriba ob'ekti sifatida kuzgi bug'doyning Guldu, Chillaki va Bayavut-1 navlari tanlandi. Guldu va Bayavut-1 navlari g'allachilik ilmiy tadqiqot institutining Sirdaryo filiali sharoitida yaratilgan Guldu va Chillaki o'ta ertapishar navlardan, Bayavut-1 navi esa nisbatan o'rta pishar navlardan deb hisoblash mumkin.

Tajriba variant va ob'ekti

Variant lar	1m ² maydon uchun sarflangan don	Navlar	Boshq uzunligi sm	Boshqdag boshqchalar soni (dona)	Boshqdag don miqdori (dona)	Boshqdag don og'irligi, gr	Boshq zichligi	1000 don og'irligi, gr
1	200	Chillaki	8,1	18,9	48,0	2,1	22,0	48,6
2	500	Chillaki	7,9	16,7	44,1	1,7	19,9	47,6
3	700	Chillaki	7,5	16,1	40,4	1,3	19,9	44,6
4	200	Bayavut-1	8,7	20,8	52,1	1,9	23,1	39,7
5	500	Bayavut-1	8,4	20,7	51,4	2,5	23,4	49,3
6	700	Bayavut-1	8,6	21,0	50,1	2,2	23,4	39,3
7	200	Guldu	10,5	19,5	53,4	2,4	17,6	44,3
8	500	Guldu	10,7	19,4	52,7	2,0	17,4	38,5
9	700	Guldu	10,4	19,6	47,7	1,7	17,8	38,5

Bayavut-1 navi Chiaki va Guldu navlariga nisbatan kechpishar va yuqori hosil beruvchi navlardan deb hisoblash mumkin.

XULOSA

Ekish me'yorining kuzgi bug'doy asosiy belgilarini o'zgaruvchanlik darajasini o'rganishga oid olib borilgan tajriba natijalari bo'yicha quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin.

1. Ekish me'yorining ortib borishi bilan belgilar o'rtasidagi bog'lanishlar darajasi ortganligi aniqlandi.
2. Kuzgi bug'doy navlarining 1000 ta don og'irligi va boshq zichligi nisbatan kam o'zgaruvchan va kam determinatsiyalangan belgilardan deb topildi.
3. Boshqdag don miqdori va boshqdag don soni kuchli o'zgaruvchan va yuqori determinatsiyalangan belgilardan deb topildi.
4. Boshq uzunligi va boshqdag boshqchalar soni esa kam o'zgaruvchan hamda nisbatan yuqori determinatsiyalangan belgilardan ekanligi aniqlandi.
5. O'rganilgan navlardan Bayavut-1 navining belgilari o'rtasida bog'lanishlar darajasi yuqori ekanligi aniqlandi. Bu esa ushbu navning Sirdaryo viloyati sharoitiga moslashgan navlardan deb hisoblash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizov M. "Polojitel'naya korrelyatsiya mejdu urojayem i krupnostyu korobochki" Toshkent 1980 , 29-32, 44- betlar.
2. Bobomirzayev P.X. "Qattiq bug'doy navlarini ekish muddatlarini sifat ko'rsatkichlariga ta'siri// O'zbekiston bug'doy seleksiyasi, urug'chiligi va etishtirish texnologiyasiga bag'ishlangan birinchi milliy konferensiya-Toshkent 2004 y 175-179 betlar.

3. Maqsudov Z.Yu, Engalichev O.X. Analiz geneticheskix korrelyatsiy priznakov xlopchatnika pri skreshivanii sortiv raznix sortosmen// Uzbekskiy biologicheskiy jurnal -1984, 42-45 betlar.
4. Maxammatova M.U. Bug'doy navlari fiziologik etilishi uchun va urug' sifatiga ekish me'yorini o'suv davri va hosildorligiga ta'siri// O'zbekiston bug'doy seleksiyasi, urug'chiligi va etishtirish texnologiyasiga bag'ishlangan birinchi milliy konferensiya-Toshkent 2004y, 80-82 betlar.
5. Yuldasheva, N. A. (2022, November). SHIRINMIYA O'SIMLIGI POPULYATSIYASINING MORFO-EKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 10, pp. 230-234).
6. Юлдашева, Н. А. (2022). БОТАНИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПОПУЛЯЦИЙ СОЛОДКИ ГОЛОЙ СОБРАННЫХ С РАЗЛИЧНЫХ МЕСТООБИТАНИЯ. Academic research in educational sciences, 3(11), 223-230.
7. Tursunov, O. T. O. G. L. (2022). Qashqadaryo viloyatidagi kemiruvchilar-rodentia turkumining ayrim turlarini biotoplardagi soni va uning ekologik omillar bilan bog'liqligi. Academic research in educational sciences, 3(11), 212-216.
8. Toshtemir o'g'li, T. O. KEMIRUVCHILAR (RODONTIA) TURKUMINI O'RGANISH BO'YICHA OLIB BORILGAN TADQIQOTLARNING QISQACHA SHARHI.